



ALISHER NAVOIY ASARLARIDA QO'LLANGAN QO'LYOZMAGA DOIR TERMINLAR TADQIQI

**Mahmudjonova Xurshida
Muxtorjon qizi**

*Nizomiy nomidagi o'zbekiston Milliy
pedagogika universiteti Magistranti
muxtorjonqizixurshida@gmail.com*

Ibrohim Yo'ldoshev

Ilmiy Rahbar

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan qo'lyozmaga doir terminlar tadqiq qilindi. Navoiyning "Munshaot" asaridagi qo'lyozmaga oid terminlarning leksik-semantik, funksional va tarkibiy xsiyatleri tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: qo'lyozma, leksik-semantik tahlil, matnshunoslik, qalam, xoma, kilik.

Jahonda ilm-fan shiddat bilan rivojlanayotgan bu davrda tilshunoslik sohasi ham kundan kunga yangilanib bormoqda. Tilshunoslikning jahon miqyosida o'rganilayotgan, tadqiq qilinayotgan yangi qirralari fan tizimida alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Insoniyatning ilm-fanda, xususan, tilshunoslik sohasida bir qadar odimlaganini yangi sohalarning kirib kelayotgani ko'rsatib turibdi. Jumladan, psixolingvistika, neyrolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvistik ekspertiza, klinik lingvistika kabilar. Garchi ushbu sohalarni yangi deb tadqiq qilsak ham, qadimiy qo'lyozmalar bilan ishlash, matnshunoslik va manbashunoslik sohalari eskirib qolayotgani yo'q. Aksincha, borgan sari dolzarflik kasb etib kelmoqda. Aynan hozirgi zamonaviy sohalarning taraqqiy va takomil topishida ham eski qo'lyozmalarning juda katta ta'siri bor.

Yurtimizda ham bu sohada keng ko'lamli ishlar qilinoqda. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Jonkuyar olimlarimiz buyuk ajdodlarimizning ilmiy an'alarini munosib davom ettirgan holda, ilm-fanni taraqqiyotimizning drayveriga aylantirib, mamlakat rivojiga xizmat qiladigan muhim kashfiyotlar yaratishlariga ishonaman"¹.

O'zbekistonimiz tarixidagi mashhur tilshunos olimlar asarlarini o'qib, mukammal anglagan holda tadqiq qilinar ekan, aqlbovarqilmas yangiliklar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. 2020.30.09. <https://president.uz/oz/lists/view/3864>

topilayotgani sir emas. Mashhur zamindosh ulamolarimiz hazrat Alisher Navoiy, Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiylar kashfiyotidan bugungi kun olimlari foydalanmayapti, deyoilmaymiz. Ularning asarlari ko'plab ixtirolarga hali hamon asos bo'lmoqda. Jumladan, mashhur tarixiy shaxslardan Muhyiddin Ibn Arabiyning "As-siyar" ("Siyrat") nomli asari bugun Amerikaning neyrofiziognomikaga ixtisoslashtirilgan akademiyasida birinchi darajali darslik sifatida o'qitilmoqda. Yoki Ibn Sino hazratlarining qo'llanmalari, asarlari nafaqat inson organizmi masalasida, balki boshqa fan sohalarida ham ixtirolar asosi bo'lib turibdi. Xususan, Ibn Sinoning til va tafakkur masalasidagi tilni ongdan alohida tasavvur qilib bo'lmasligi haqidagi noyob fikrlari bugun kognitiv tilshunoslikning asos g'oyasi ekanligi ham e'tirof etilishi shart bo'lgan haqiqatdir. Uningcha, fikr belgisi haqidagi ta'limot til haqidagi ta'limotdir. U tilni tabiiy va sun'iy tillarga bo'ladi. Tabiiy til tafakkur belgisi sifatida Ibn Sino tomonidan har tomonlama o'rganilgan².

Yoki Hazrat Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'otayn" kitobidagi til va tafakkur to'g'risidagi fikrlarni olaylik. Unda til tafakkurning ifoda quroli ekanligi aytilib, kishining ko'ngli daryo, so'z - dur, so'zlovchi esa g'avvos deb ta'rif beriladi. Bundan ko'rinib turibdiki, kognitiv tilshunoslik g'oyaviy asosi ajdodlarimiz asarlarida ham aks etgan ekan. Shu sababdan ham qadimiy qo'lyozma asarlarni o'qish, ulardagi bemisl ilmlar xazinasini ochish bugungi kun olim bo'lmishlarining o'ziga xos yutug'i bo'ladi, desak adashmagan bo'lamiz.

Bunda esa qo'lyozmaga doir terminlarni tadqiq qilish, ularni atroflicha o'rganish ilm rivojiga ulkan hissa qo'shadi, deb o'ylaymiz.

Inson tafakkuri rivojlangani, ilm-fan taraqqiyoti sohaviy bilimlarni yuzaga keltirdi. Tarmoqlarga bo'linish natijasida tarqalgan sohalar tabiiy ravishda o'ziga xos nomlar bilan nomlandi va har bir soha o'z o'rganish obyektini, tadqiqot materiali, o'rganish doirasi sababidan o'z tiliga, terminologiyasiga ega bo'ldi. Zotan, ma'lum bir sohani uning maxsus atamalari, terminlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Biror bir yangi soha fanga taqdim qilinar ekan, albatta, eng avval uning terminologiyasi tushuntirilishi kerak. Ma'lum bir sohaning nomidan tortib, mubolag'ali aytganda, tinish belgilarigacha maxsus shifrlarga ega. Deylik, "til" degan so'z. Biologiyada inson organi sifatida tadqiq qilinsa, lingvistik terminologiyada u nutq a'zosidan, nutq qurolidan tashqari umumiy muloqot, nutq vositasi ma'nolarini ham ifodalaydi. Ayrim texnikaviy yo'nalishlarda esa biror asbobning uch qismi ma'nosida ham qo'llaniladi. Yer yuzida mavjud til tizimlarining deyarli barchasida terminologiya tadqiq qilinadi. Biroq u qadar keng ko'lamda emas. Ayrim sohalar terminologiyasi hali deyarli shakllantirib ulgurilmagan ham. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi ikki mingdan ortiq tilning oltmishga yaqinida ilmiy terminologiya masalalari tadqiq etiladi va uch yuz atrofidagi kasb-hunar doirasini qamragan, xolos. Shunga ko'ra har bir tilda ishlangan sohalar terminologiyasi u qadar ko'p miqdorni tashkil etmaydi³.

Bugun boshlayotganimiz mazkur ilmiy ishda mamlakatimiz olimlari boshlab qo'ygan qo'lyozmaga doir terminlar tadqiqini yana bir pog'ona yuksaltirib, lug'at

² Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma. — T.: "Barkamol fayz mediya", 2016, 33-b.

³ Йўлдошев И. Ўзбек китобат санъати ва терминологияси. Монография. / Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирилиги, Ўзбекистон Давлат санъат ва маданият институти. — Т.: «TURON-IQBOL», 2018. — Б-8.

boyligi bo'yicha dunyo tilshunosligida e'tirof etilgan Hazrat Navoiy asarlaridagi istilohlarni qisman o'rganib chiqamiz.

Qo'lyozma asarlar yozish san'ati ham, ularni tadqiq etish ham kecha paydo bo'lgan soha emas, albatta. Yuksak didli, sinchkov xalqimiz azal-azaldan yozma matnlarning har bir detaliga alohida ahamiyat berib kelgan. Har bir kichik ashyoga ham o'ziga xos nom berganligini, har bir harakatni o'ziga xos ataganligini Hazrat Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" kitoblaridan ham bilishimiz mumkin. O'zbek tilshunosligida qo'lyozmaga doir terminlarning shakllanishi uzoq tarixiy jarayon natijasi bo'lib, u Markaziy Osiyo hududida shakllangan yozma madaniyat, kotiblik an'analari va ilmiy-adabiy muhit bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu terminlar tizimi asosan arab, fors va turkiy tillar o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelgan murakkab leksik qatlamni tashkil etadi⁴. O'zbek xalqi boy va qadimiy kitobat madaniyatiga ega bo'lib, bu jarayon tilda o'ziga xos murakkab terminologik tizimning shakllanishiga olib kelgan. Ayniqsa, XV asr – Temuriylar Renessansi davrida kitob ko'chirish, bezash va muqovalash san'ati o'zining cho'qqisiga chiqdi. Bu davrning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy nafaqat turkiy tilning asoschisi, balki o'sha davr ilmiy-madaniy terminologiyasini tartibga solgan yirik tilshunos hamdir. Qo'lyozmaga doir terminlarni o'rganish hozirgi kunda matnshunoslik va leksikologiya sohalari uchun juda dolzarbdir. Zero, qadimiy manbalarni to'g'ri o'qish va talqin qilish uchun o'sha davr terminologiyasini bilish birlamchi talab hisoblanadi.

Alisher Navoiyning "Munshaot" asari o'zining o'zgacha janr jihatidan ham, yozilish uslubi jihatidan ham ajralib turadi. Asar Alisher Navoiyning yozgan maktublari jamlanmasidan iborat bo'lib, xat, noma, hujjat yozishda o'ziga xos dasturulamal bo'lib xizmat ham qiladi. Ushbu kitobdan Navoiyning yuksak axloqi, so'z qo'llash mahorati, badiiy zakosini ham tadqiq qilish mumkin. Alisher Navoiyning "Munshaot" asari qo'lyozma madaniyatining nafaqat rasmiy-uslubiy, balki terminologik jihatdan ham mukammal namunasi hisoblanadi. Asarda qo'llangan qo'lyozmaga oid terminlar ichida kitobning ichki tuzilishi va tashkiliy qismlarini ifodalovchi birliklar alohida semantik guruhni tashkil etadi. Mazkur guruhga kiruvchi terminlar asosan kitobning strukturaviy elementlarini ifodalab, ular orqali matnning tashkiliy shakli, bezagi va mazmuniy joylashuvi anglashiladi. "Munshaot" Alisher Navoiyning maktubot (xatlar) to'plamining nomidir. Ammo bu so'z asar nomidan tashqari, o'rta asr Sharq adabiyotida ma'lum bir epistolyar janr va yozma hujjatlar turkumini ham ifodalovchi termin hisoblanadi. Quyida ushbu so'zning semantikasi, etimologiyasi, derivatsiyasi, ma'nodoshlari va kontekstual xususiyatlari batafsil ko'rib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Munshaot" asarida yozuv jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan terminlar ham keng uchraydi. Bu guruhga yozuv qurollari, yozish usuli va yozuv texnikasini ifodalovchi birliklar kiradi. Asosiy terminlarga qalam, xoma, tahrir, bitik, bitimoq, ruq'a, noma kabi so'zlar kiradi.

Alisher Navoiy asarning kirish qisminiyoq qalam so'zi bilan boshlaydi. Albatta, bu behikmat emas. Manbalarda kelishicha, Alloh taolo birinchi bo'lib qalamni yaratdi va unga "Yoz", – dedi. Qalam: "Nimani yozaman?" – dedi. "Bo'ladigan hamma

⁴ Hojiyev A. O'zbek tili izohli lug'ati. – Toshkent, 2006. – 15-b.

narsani yoz”, – dedi Alloh taolo. Ana shu vaqtda Qalam koinotda bo’ladigan har bir jarayonni yozib chiqdi. Ana shu voqeadan buyon qalam tabarruk ashyolardan biri sifatida qadrlanadi. Alloh taolo dunyoning boshlanishini qalam – yozuv vositasi, kitob – bitilgan yozuvlar jamlanmasi bilan bog’ladi va O’zining kalomi Qur’oni Karimni ham “Iqro” – “O’qi!” kalimasi bilan boshladi. Bundan ko’rinib turibdiki, islom dinida ilm ulug’ sanaladi. Shu boisdan ham ajdodlarimiz ilm-fanni yuksaltirdilar. Navoiy ham barcha asarlarida so’z va qalam masalalariga alohida o’rin berib o’tishlari shundandir. “Munshaot”ning dastlabki satrlari quyidagicha boshlanadi: “Hamdi manfur ul sonig’akim ilmi munshiysi sun’ qalami bila kalomi majid inshosin ofarinish avroqig’a raqam qildi...” Ushbu gapda qo’lyozmaga doir bir necha so’zlarni ko’rishimiz mumkin: munshiy, qalam, kalom, insho, avroq. Munshiy – sarkotib, kotib. Qalam so’zi esa bu o’rinda sun’ so’zi bilan izofiy holda qo’llangan. “...sun’ qalami...” iborasi “...yaratish qalami bilan” deganidir.

Alisher Navoiy asarlarining o’ziga xos tomoni mavzu nima haqida bo’lsa, muqaddima: hamd va na’t qismlarda, albatta, o’sha hodisaga munosib kalimalardan, jumalardan foydalaniladi. Bu islomiy an’ana hisoblanib, Navoiyning diniy an’analarni g’zoyatda puxtalik bilan aks ettirganiga ham dalildir. Ushbu asar ham maktubot bo’lgani uchun Navoiy hamd qismida bevosita Yaratuvchining dunyoni yaratish va taqdimni yozish jihatiga urg’u bermoqda. Asarda *qalam* so’zi bir necha o’rinlarda, aniqrog’i, 15 ga yaqin o’rinda zikr qilinadi. Qalam haqida yozish va uni ta’riflash o’rta asr ijodkorlari orasida an’anaga aylangan edi. Shu sababli har bir muallif asarida bu haqdagi fikrlarni topish mumkin bo’ladi. Albatta, buyuk so’z ustasi Alisher Navoiy bobomiz asarlari bundan mustasno emas. U qalamning faqat ezgu ishlarga xizmat qilishini, har kimning qalamidan doimo shakar tomib turishini orzu qiladi. Bu haqda “Farhod va Shirin”da shunday deydi⁵:

“Qalam bahri kafida turfa ishdur,
Magar daryo aro butgan qamishdur.
Ajab ermas qamish bo’lmoq shakarrez,
Va lekin bu qamish bo’lmish guharrez.
Uchidin ham guhar olamqa sochib,
Ichindin ham shakar do’koni ochib.
Sarasar go’yo ul nay guhardur,
G’alat qildim, labolab nayshakardur”⁶.

E’tiborli tomoni hamma o’rinda ham oddiy yozuv vositasini nazarda tutmaydi, birikmali hollarda ham qo’llanadi. Bunday holatlarda Navoiyning so’z sultoni ekaniga guvoh bo’lamizki, so’zlarni metaforik ma’nolarda ham qo’llaydi. Masalan, “*Bovujudi bu g’arib holot va turfa maqolot chun anda bo’lmog’liq ro’zgorim nosiyasida qazo qalamidin tahrir topmish va nosiyam safhasida qadar xomasidin shashpazir bo’lmish har tikandin bir gulcha osoyish yetar va har toshdin bir durcha oroyish fahm bo’lur*”. Bu jumlaning go’zalligi, so’z qo’llashdagi noziklik e’tiborni tortmay qolmaydi. Mazmuni: “*Bu g’arib holatlar va turfa voqealar mening taqdirim peshonasiga qazo qalami bilan yozilgan, qadar qalamidan mustahkam bitilgan. Shunday bo’lsa-da, har*

⁵ Йўлдошев И. Ўзбек китобат санъати ва терминологияси. Монография. / Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги, Ўзбекистон Давлат санъат ва маданият институти. – Т.: «TURON-IQBOL», 2018. – Б. 89.

⁶ Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш жилдли. 7-ж. Фарход ва Ширин. – Т., 1964. -Б.11-12.

bir qiyinchlikdan biroz yengillik, har bir mashaqqatdan bir go'zallik topish mumkin". Ushbu gapda qo'llangan **"qazo qalami"** metaforasi taqdirni yozuvchi ilohiy kuch ma'nosida kelgan. Shuningdek, jumladagi **"tahrir topmish"** so'zi ham o'z ma'nosidan biroz kengroq "bitib qo'yilgan taqdir" ma'nosida keladi. Qalam so'zini takror qo'llashdan hazir bo'lgan, so'z sultoni mazkur so'z bilan deyarli bir xil - yozuv vositasi ma'nosida qo'llanuvchi xoma so'zini ham ko'chma holda **"qadar xomasi"** deya keltiradi. **"Nosiya sahifasi"** - birikmasida nosiya - peshona, sahifa - yozish joyi birikib, inson taqdiri yoziladigan hayot sahifasi ma'nosida zalvarli mazmun tashigan. Mazkur parchada Alisher Navoiy qo'lyozma va kitobat terminlarini metaforik ma'noda qo'llab, ularni falsafiy-axloqiy mazmun bilan boyitadi. Xususan, *qalam, tahrir, xoma, sahifa* kabi terminlar real yozuv jarayonini emas, balki inson taqdirining ilohiy yozilishini ifodalash uchun xizmat qilgan. Bu esa quyidagilarni ko'rsatadi:

- a) qo'lyozma terminlari semantik kengayishga ega;
- b) ular badiiy matnda abstrakt tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi;
- c) terminlar faqat texnik birlik emas, balki badiiy-estetik vosita hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. 2020.30.09. <https://president.uz/oz/lists/view/3864>
2. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma. — T.: "Barkamol fayz mediya", 2016.
3. Ўлдошев И. Ўзбек китобат санъати ва терминологияси. Монография. / Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги, Ўзбекистон Давлат санъат ва маданият институти. — Т.: «TURON-IQBOL», 2018. — 288 Б.
4. Hojiyev A. O'zbek tili izohli lug'ati. — Toshkent, 2006.
5. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш жилдли. 7-ж. Фарход ва Ширин. — Т., 1964. -Б.